

**SURXONDARYO VILOYATIDA
UMUMIY O'RTA TA'LIM TIZIMI
2020/2021- o'quv yili boshiga**



2020/2021-o'quv yili boshiga Surxondaryo viloyatida jami umumta'lim muassalari soni 934 tani tashkil etib, ulardan 621 tasi (66,5 %) qishloq joylarda, 313 tasi (33,5 %) shaharlar da joylashgan. Surxondaryo viloyati umumta'lim muassalarida 504,3 ming nafar o'quvchilar ta'lim olayotgan bo'lib, ulardan 56,1 % i qishloq joylardagi umumta'lim muassalarida, 43,9 % i shahar joylarda ta'lim oladigan o'quvchilarni tashkil etadi.



Umumta'lim muassasalarida sinf guruhlari bo'yicha o'quvchilar soni

(2020/2021-o'quv yili boshiga, ming kishi)



10-11 sinflar 74,4


5-9 sinflar 224,0

1-4 sinflar 204,7

Umumta'lim muassasalari bolalarga ta'lim beruvchi, har tomonlama rivojlanishi va estetik tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi muassasadir.

Umumiy o'rta ta'lim, boshlan-g'ich ta'lim (I - IV sinflar), tayanch o'rta ta'lim (V-IX sinflar) hamda o'rta ta'lim (X-XI sinflar) bosqichlaridan iborat bo'lib, kunduzgi ta'lim shaklida faoliyat yuritadi.

Umumiy oʻrta taʼlim muassasalarining hududlar kesimida taqsimlanishi, birlik (2020/2021- oʻquv yili boshiga)




Umumta'lim muassasalari soni, birlik
(o'quv yili boshiga)



Surxondaryo viloyatida 2020/2021-o'quv yili boshida jami umumta'lim muassasalari soni 934 tani tashkil etdi va 2016/2017-yilning mos davriga nisbatan 74 taga ko'payib, 8,6 % ga oshgan.

Umumta'lim muassasalari, o'quvchilar soni, ming kishi
(o'quv yili boshiga)



2020/2021- o'quv yili boshiga umumta'lim muassasalarida jami 504,3 ming nafar o'quvchi ta'lim olmoqda. Ushbu ko'rsatkich 2016/2017- o'quv yili boshida 120,9 ming nafarga (31,5 % ga), 2017/2018- o'quv yili boshida 82,2 ming nafarga (19,5 % ga), 2018/2019 -o'quv yili boshida 32,0 ming nafarga (6,8 % ga), o'tgan yilning mos davriga nisbatan 8,6 ming nafarga (1,7 % ga) oshganligi kuzatildi.


Umumta'lim muassasalari, o'qituvchilar soni, ming kishi
(o'quv yili boshiga,)



Umumta'lim muassasalarida o'qituvchilar bu- o'quvchilarga ta'lim berish va kasbiy tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi, o'rta maxsus, oliy yoki maxsus tayyorgarlikdan o'tgan shaxslardir . 2020/2021- o'quv yili boshiga umumta'lim muassasalarida jami 44,9 ming nafar o'qituvchi (o'rindoshlarsiz) faoliyat olib bormoqda va 2016/2017- o'quv yili boshida 34,7 ming nafarga (29,4 % ga), oshganligi kuzatildi.





Umumta'lim muassasalarini turlari bo'yicha taqsimlanishi, birlik (2020/2021-o'quv yili boshiga)



Surxondaryo viloyatida umumta'lim muassasalarini ikki turga bo'linadi: Umumiy o'rta va boshqalar hisoblanadi. 2020/2021- o'quv yili boshiga umumiy umumta'lim muassasalarining 931 tasi umumiy o'rta ta'lim maktablari, va 3 tasi boshqa muassasalar tarkibiga kiradi. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida jami 502,3 ming nafar, va boshqa muassasalarda 1,1 ming nafar o'quvchilar tahsil olmoqda.

**Umumta'lim muassasalarini hududlar bo'yicha
taqsimlanishi, birlik
(2020/2021-o'quv yili boshiga)**

		Boshlang'ich	Umumiy o'rta	Boshqalar
	Surxondaryo viloyati	-	931	3
	Termiz sh	-	27	-
	<i>tumanlar:</i>			
	Oltinsoy	-	69	-
	Angor	-	44	-
	Bandixon	-	31	-
	Boysun	-	65	-
	Muzrabot	-	57	-
	Denov	-	102	-
	Jarqo'rg'on	-	68	-
	Qumqo'rg'on	-	88	-
	Qiziriq	-	49	-
	Sariosiyo	-	88	-
	Termiz	-	28	-
	Uzun	-	68	-
	Sherobod	-	73	-
	Sho'rchi	-	74	3

Umumta'lim muassasalarida sinflar bo'yicha o'quvchilar soni, kishi


 O'quvchilar soni jami	shundan :											
	1-sinf	2-sinf	3-sinf	4-sinf	5-sinf	6-sinf	7-sinf	8-sinf	9-sinf	10-sinf	11-sinf	
Surxondaryo viloyati	503191	53267	50487	51455	49532	49377	48664	44942	41615	39397	36728	37727
Termiz sh tumanlar:	34516	3344	3478	3451	3443	3267	3077	3265	2943	2713	2812	2723
Oltinsoy	33004	3390	3228	3381	3173	3252	3239	2773	2666	2638	2668	2596
Angor	24136	2507	2438	2725	2482	2396	2428	2120	1936	1796	1708	1600
Bandixon	12278	1338	1217	1244	1109	1183	1208	1075	1058	1020	914	912
Boysun	25101	2609	2492	2493	2590	2552	2464	2193	2126	1875	1914	1793
Muzrabot	26137	2919	2833	2811	2527	2458	2389	2362	2037	1962	2014	1825
Denov	74089	7788	7424	7290	7336	7068	7141	7039	6193	6117	5226	5467
Jarqo'rg'on	39913	4244	4058	4317	4139	3774	3830	3429	3103	2913	2780	3326
Qumqo'rg'on	47628	4684	4391	4567	4181	4880	4777	4651	4111	3938	3754	3694
Qiziriq	21494	2374	2206	2211	2083	2037	2159	1813	1813	1599	1586	1613
Sariosiyov	39757	4642	4173	4308	4193	4192	3707	3402	3239	2969	2273	2659
Termiz	17531	1902	1831	1915	1713	1734	1763	1450	1384	1332	1297	1210
Uzun	32861	3615	3242	3256	3348	3375	3326	2991	2714	2508	2176	2310
Sherobod	34672	3673	3625	3661	3393	3280	3207	2947	2904	2666	2595	2721
Sho'rchi	40074	4238	3851	3825	3822	3929	3949	3432	3388	3351	3011	3278



2020/2021- o'quv yili boshiga umumta'lim muassasalarining birinchi sinfga qabul qilingan o'quvchilari soni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Denov, va Qumqo'rg'on tumanlarida qayd etilgan bo'lsa, eng kam ko'rsatkich Bandixon va Termiz tumanlarida kuzatildi.

1) Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktablar va sinflar o'quvchilarsiz, boshqa ta'lim muassasalarida tashkil etilgan maktab sinflari o'quvchilarni qo'shgan holda.

Umumta'lim muassasalari mashg'ulotlarining smenaliligi²⁾, %da



2020/2021- o'quv yili boshiga (jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktablarni hisobga olmagan holda) barcha ta'lim muassasalaridan, bir smenada ta'lim yuritiladiganlari 135 ta (14,5 %), ikki smenada 789 ta (85,1 %), uch smenada 4 ta (0,4 %)ni tashkil etdi. Ta'kidlanganidek, bir smenada 310,2 ming kishi, (61,7 % i) ikki smenada 192,5 ming kishi, (38,2 % i) uch smenada 0,5 ming kishi (0,1 % i) tahsil olmoqda.

²⁾Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar maktablarisiz va sinflar o'qituvchilarsiz



Umumta'lim muassasalarida o'qituvchilarning ma'lumoti bo'yicha taqsimlanishi,%da



2020/2021- o'quv yili boshiga jami o'qituvchilar soni 43,7 ming nafarni tashkil etib, ulardan 60,4 % i qishloq maktablarida, 39,6 % i shahar maktablarida faoliyat yuritib kelmoqda. Surxondaryo viloyatida bitta o'qituvchiga o'rtacha 11,6 nafar o'quvchi to'g'ri keladi.

O'qituvchilarni ta'lim darajasi bo'yicha hududlar bo'yicha taqsimoti³⁾

		Oliy ma'lumotli o'qituvchilarning jami o'qituvchilar sonidagi ulushi, % da	O'rta maxsus ma'lumotli o'qituvchilarning jami o'qituvchilar sonidagi ulushi, % da
	Surxondaryo viloyati	79,0	21,0
	Termiz sh	90,6	9,4
	tumanlar:		
	Oltinsoy	80,2	19,8
	Angor	80,6	19,4
	Bandixon	77,5	22,5
	Boysun	75,8	24,2
	Muzrabot	81,3	18,7
	Denov	80,7	19,3
	Jarqo'rg'on	79	21
	Qumqo'rg'on	79,9	20,1
	Qiziriq	82,8	17,2
	Sariosiyo	71,5	28,5
	Termiz	84,8	15,2
	Uzun	70,3	29,7
	Sherobod	76,6	23,4
	Sho'rchi	79,2	20,8

3) o'rindoshlarsiz

**Umumta'lim muassasalarida bitta o'qituvchiga to'g'ri keladigan
o'quvchilar soni, birlikda
(2020/2021-o'quv yili boshiga)**




 Hududlar kesimida eng yuqori ko'rsatkich Qumqo'rg'on tumanida qayd etilib, unda bitta o'qituvchiga o'rtacha 18 nafar o'quvchi to'g'ri kelgan bo'lsa, Oltinsoy va Denov tumanlarida esa eng past ko'rsatkich ya'ni bitta o'qituvchiga o'rtacha 9 nafardan o'quvchi to'g'ri kelgan.






2020/2021-o'quv yili boshiga mulkchilik shakli bo'yicha umumta'lim muassasalari, ulardagi o'quvchilar va o'qituvchilar soni

	Muassasalar soni, birlik		O'quvchilar soni, kishi		O'qituvchilar soni, kishi	
	davlat	xususiy	davlat	xususiy	davlat	xususiy
Surxondaryo viloyati	934	-	504318	-	44930	-
Termiz sh	29	-	34516	-	2510	-
tumanlar:						
Oltinsoy	69	-	33006	-	3428	-
Angor	44	-	24136	-	2198	-
Bandixon	31	-	12278	-	1236	-
Boysun	65	-	25102	-	2189	-
Muzrabot	57	-	26156	-	2517	-
Denov	103	-	74089	-	5263	-
Jarqo'rg'on	68	-	39921	-	3472	-
Qumqo'rg'on	88	-	47629	-	4249	-
Qiziriq	49	-	21502	-	2010	-
Sariosiyo	88	-	39757	-	3703	-
Termiz	28	-	17531	-	1602	-
Uzun	68	-	32867	-	3070	-
Sherobod	73	-	34677	-	3692	-
Sho'rchi	74	-	41151	-	3791	-



Umumta'lim muassasalari o'quvchilarining jinsi bo'yicha taqsimlanishi, % da (2020/2021- o'quv yili boshiga)



qiz bolalar



o'g'il bolalar

2020/2021- o'quv yili boshiga, Surxondaryo viloyati bo'yicha jami umumta'lim muassasalarida 503,2 ming nafar o'quvchilar (jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktablar va sinf o'quvchilarsiz) ta'lim olayotgan bo'lib, ulardan 258,0 ming nafari (51,3 %) o'g'il bolalar, 245,2 ming nafari (48,7 %) qiz bolalarni tashkil etadi.



Statistik ko'rsatkichlarga izoh

Umumta'lim muassasalari – bolalarga ta'lim beruvchi, har tomonlama rivojlanishi va estetik tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi muassasalar.

Umumta'lim muassasasi uzluksiz ta'lim tizimining asosiy bo'g'ini hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolariga davlat umumta'limi andozalari doirasida bepul umumiy ta'lim olishning kafolatlangan huquqi va imkoniyatini beradi.

Umumta'lim muassasasining asosiy maqsadi – o'quvchilarni har tomonlama rivojlangan, madaniyatli shaxs sifatida shakllantirish, shuningdek, jamiyatda o'zlarining mustaqil o'rnini topish, ongli ravishda ta'lim va kasblar bo'yicha dasturlarni tanlash, ularni o'zlashtirish uchun asos yaratish, jamiyat, oila va davlat oldida o'z mas'uliyatlarini his qila oladigan shaxslarni tarbiyalashdan iboratdir.

Umumta'lim muassasalari o'quvchilariga – umumta'lim muassasalarining boshlang'ich va umumiy o'rta ta'lim bosqichlarida o'qiyotgan shaxslar hamda jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktablarning o'quvchilari kiritiladi.

Umumta'lim muassasalari bitiruvchilariga – umumta'lim muassasalarida o'qishni to'liq bitqazgan va o'rta ma'lumot uchun shahodatnoma olgan shaxslar soni kiritiladi.

O'qituvchilar soni – o'quvchilarga ta'lim berish va kasbiy tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi, o'rta maxsus, oliy yoki maxsus tayyorgarlikdan o'tgan shaxslar soni.

Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi tel.: (76) 225-65-89